

## Do'stingni Alloh roziligi uchun ziyorat qil!



15:03 / 05.11.2018 5350

### ***Ey, farzand!***

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

**«Kim bir mo'min birodarini Alloh roziligi uchun ziyorat etib, qo'l ushlab uch bora silkitib ko'rishsa, kuzgi daraxt barglari to'kilgandek, har ikkovining gunohlari to'kiladi».**

Yana bir hadisi shariflarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar:

«Zarur holda mo'min birodarining ziyoratidan uzoq bo'lgan va jamoatni tark etgan Allohning rahmatidan ham uzoq qoladi».

«Kerak vaqtda mo'min birodarining ziyoratida bo'lmagan kishi meni ranjitgan bo'ladi».

*Hazrati Umar roziyallohu anhu marhamat etadilar:*

**Rasulullohdan sollallohu alayhi vasallam ziyoratga munosib vaqtlarni so'radim. Menga shunday dedilar:**

**«Ey, Umar! Ertalab va asr vaqtlarida ziyoratda bo'lmoqni menga Makkayi Mukarramadagi paytimda Jabroil alayhissalom o'rgatdilar. Bir kun birodarini Alloh roziligi uchun ziyorat etgan kishi Hizr alayhissalomni ziyorat etgan kabidir».**

Mo'minlar bir-birini ziyorat etishlarining savob va fazilatlarini sanab ado qilib bo'lmaydi.

Har xil bahonalar bilan ziyoratdan qochmaslik kerak. Chunki uch toifa inson Alloh taolo jamolini ko'rmoqdan mahrum qoladi:

1. Tanbal kishilar.
2. Kibrililar va xudbinlar.
3. Behuda, befoyda narsalar bilan o'ralashuvchilar, sir saqlashni bilmaydigan ezma, vaysaqilar.

*Ey, farzand!*

Aslo musofaha (qo'l ushlab ko'rishish)ni tark etma.

Janob Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir hadisi shariflarida shunday marhamat etadilar:

**«Uchrashgan mo'min birodari bilan musofaha etmoq (qo'l ushlab ko'rishmoq)dan qochgan (o'zini tortgan) kishi bizdan emas».**

Musofaha paytida marhumlarni, mo'min-musulmonlarni duo qilish kerak. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga alohida salovat aytish lozim.

***“Ey, farzand!” kitobidan***